

DANGASA

Ertak

Qadim zamonda bir bola bo'lgan ekan. Bu quvnoq bola do'stlari bilan o'ynashni xush ko'rarkan. Lekin uning kichkinagina kamchiligi bor ekan - u ozgina dangasaroq ekan. Onasi ish buyurganda, bo'pti, bajaraman derkanu, bir ozdan so'ng yodidan chiqarib yuborarkan. Uning onasi va singlisi tirikchilik uchun tunu kun do'ppi tikisharkan. Duradgor otasi bo'lsa uzoq sliaharga ishlash uchun ketgan ekan.

Kunlaming birida onasi unga ekinlami sug'orishni buyuribdi. Bola, hozir sug'oraman, deb ariq bo'yiga boribdi. Biroq ishga kirishmabdi. Bir oz dam olay, deb ariq chetiga cho'zilibdi. Suvning salqini xush yoqib uxlab qolibdi. Qancha uxlaganini bilmaydi, bir mahal singlisining chinqirgan ovozidan uyg'onib ketibdi. Ko'zlarini ochsa, singlisi qo'llarini bilan uni ko'rsatib, qichqirayotgan ekan. Keyin yugurganicha onasining yoniga kirib ketibdi. U hayratlanganicha qo'llariga qarabdi. Qo'llari xuddi hayvonlarikidek tuk blan qoplanganini ko'rib qo'rqib ketibdi. Keyin oyoqlariga qarabdi, oyoqlari ham shundayligini ko'rgach, shoshib suvga qarabdi. Unga suvdan badbashara bir maxluq qarab turgan ekan Bola o'zining badbashara maxluqqa aylanib qolganini tushunibdi va birovga ko'rinmaslik uchun devor oshib, uyidan uncha uzoq bo'lmagan daryo tomon ketibdi.

Shu kechani bo'rildan qo'rqqani uchun daraxt tepasida o'tkazibdi. Ovqatlanmagani sabab rosa ochiqibdi. Ammo tong otguncha bir amallab chidashdan o'zga chorasi yo'q ekan.

Ertasiga ertalab tong otishi bilan ovqat izlashga tushibdi. Uyiga borolmay, yaqin oradagi polizlami keza boshlabdi. Hech kimga ko'rinmay bitta qovunni olib endi chiqayotganida polizni qo'riqlayotgan bo'ribosar quvlashga tushibdi. U yugura-yugura itdan qutilibdi. Panaroq joy topib qovunni yeb, bir oz oshqozonini aldagan bo'libdi. Ammo bir pasdan keyin yana ochlik tuya boshlabdi. Shunda o'z uyini, har kuni mazali ovqatlar tayyorlab beradigan onasini, singlisini, otasini eslabdi. Ilk bor ularning gaplariga kirmaganiga pushaymon bo'libdi. Odamlardan berkinib yana daraxt tepasiga chiqibdi. Daraxt tepasida muvozanatni saqlab o'tirish juda qiyin ekan. Shu asnoda bir kun shunchalar uzoq bo'lishini anglabdi. Bir amallab kunni kech qilibdi. Keyin o'z hovlisiga yo'l olibdi. Kelib endi pisha boshlagan jo'xorilardan ikkitasini uzib, yana o'z joyiga qaytibdi. Xom jo'xori bilan oziqlanib tunni ham o'tkazibdi. Ertasiga tongda yana hovlisiga kelibdi. Qarasa ekinlar hali ham chopilmagan, jo'xorilar sug'orilmagan, chunki onasi va singlisining qo'li do'ppi tikishdan bo'shamagan ekan.

Bola qo'lga ketmon olib vval ekinlar tagini yumshatibdi. Egatlarga suv tarabdi. Keyin esa otasining duradgorlik teshasini olib supa ustidagi bir oyog'i qiyshayib qolgan xontaxani tuzatibdi. Bu ishni o'rniga qo'yib bajarganidan o'zi ham hayratlanibdi. O'z ishiga mahliyo bo'lganicha supaga cho'zilibdi va uni uyqu elitibdi.

U yana singlisining ovozidan uyg'onib ketibdi. Shoshib o'rnidan turib, qocha boshlabdi. Singlisi:

- Akajon, qayerga qochayapsiz? - deb uni to'xtatibdi.

Bola to'xtab oyoqlariga, qo'llariga razm solibdi. Qarasa, yana odam holiga qaytganmish. Ko'zlariga ishonmay ariqdagi suvga qarabdi. Unga suvdan badbashara maxluq emas, chiroylikkina bola qarab turganmish. Yugurib borib onasi va singlisini mahkam quchibdi.

Shu voqea sabab u faqat mehnat tufayli inson insonligini saqlab qolishi mumkinligini, dangasalik oqibatida esa badbashara mahluqqa aylanib qolish hech gapmasligini anglabdi. Otasi kelganida undan duradgorlikni o'rganishni ko'ngliga tugibdi.

Bola onasi va singlisi bilan dasturxonga o'tiribdi. Mehnat qilgani sabab bugungi ovqat har qachongisidan totli tuyulibdi.